

O‘ZBEK LATIFALARIDA KULGI SEMANTIKASINI GRAMMATIK TAHLILI

Nomozova Farangiz

Filologiya fanlari bo‘yicha 2-kurs tayanch doktoranti

Termiz Davlat Universiteti

Annotatsiya. Ushbu tezisda o‘zbek latifalarida kulgi semantikasini konstruksiyalar grammatikasi nuqtai nazaridan o‘rganish nazariy asoslari va metodologiyasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot M.A Uxanovning ingliz tilidagi anekdotlar materialida ishlab chiqqan konstruksion-kognitiv yondashuviga tayanadi. Latifalarni kognitiv dissonans mexanizmlari asosida tasniflash imkoniyatlari muhokama etiladi. Verbal va verbal-vizual latifalar tahlil metodologiyasi taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Latifa, konstruksiyalar grammatikasi, kognitiv dissonans, freym tahlili, leksik-sintaktik konstruksiya, kulgi semantikasi, internet-mem.

Kirish

Latifa – kutilmagan yakun bilan tugaydigan qisqa hajmli komik rasm-minatyura, o‘ziga xos yumoristik vaziyatdir. Yumorni yaratish jarayonlari tilshunoslik, falsafa, psixologiya va madaniyatshunoslik fanlari kesishmasida ko‘p bor o‘rganish obyektiga aylangan. Ilmiy metodologiyaning rivojlanishi, latifalarning raqamlashuvi va yumoristik diskursning vizuallashuvi bilan kulgi effektini yaratish tamoyillarini o‘rganishda yangi imkoniyatlar yuzaga keldi. Kognitiv lingvistika vositalaridan foydalanib, yangi va an’anaviy latifa turlarining batafsil qiyosiy tahlilini o‘tkazish, ularning nafaqat rasmiy o‘xshashliklari va farqlari, balki kulgi hosil qilishning chuqur mexanizmlarini ham kuzatish mumkin.

Yumorni o‘rganishning yangi vositalaridan biri bu bir necha o‘n yil avval Ch.Fillmor va A.Goldberg tomonidan ishlab chiqilgan konstruksiyalar grammatikasi nazariyasi doirasidagi komiklikka konstruksion yondashuv hisoblanadi. Konstruksiyaga kompleks yondashuv – shu jumladan koelektsem va korpus tahlili yordamida – kichik formatlardagi hazil matnlar (latifalar) misolida yumoristik effekt tabiatini yanada batafsil ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Mazkur tezisning maqsadi M.A. Uxanova tomonidan ingliz tilidagi anekdotlar materialida ishlab chiqilgan metodologiyani o‘zbek latifalariga tatbiq etish uchun nazariy asos yaratish va uning asosiy yo‘nalishlarini belgilashdan iborat.

Kulgi tabiatini tushuntiruvchi nazariyalar uch asosiy yo‘nalishda rivojlangan: ustunlik nazariyasi, bo‘shashish nazariyasi va ziddiyat nazariyalari. Ziddiyat nazariyalari keyinchalik kognitiv yondashuvning asosiga aylandi. V.Raskin va S.Attardoning “verbal yumorning umumiy nazariyasi” doirasida latifaning komik effekti ikki yoki undan ortiq semantik skriptning bir vaqtda faollashuvi natijasida yuzaga keladi: matn dastlab bitta ma’noda qabul qilinadi, so‘ngra yakunda kutilmagan ikkinchi ma’no ochiladi.

M.Daynel uch bosqichli mexanizmni tavsiflaydi: 1. interpretatsiyaning o‘rnatilishi, 2. kutilmagan yakun orqali kognitiv dissonans paydo bo‘lishi, 3. Kognitiv dissonansning bartaraf

etilishi. Kognitiv disonans tushunchasi L.Festingerning kontseptsiyasiga asoslanadi: bu bilish tizimidagi alohida elementlar o'rtasida qarama-qarshi munosabatlarning mavjudligidir. Latifani idrok etgan tinglovchi kognitiv disonansni bartaraf etishga – ya'ni latifaning mazmunini anglashga – intiladi. Ayni paytda kognitiv disonansning bartaraf etilishi komik reaksiya (kulgi, tabassum)ga tenglashtira olmaydi, chunki uni namoyon etish individual yumorga moyillik va ko'plab ijtimoiy-madaniy omillarga bog'liq.

A.Kyostlarning bisotsiatsiya nazariyasiga ko'ra kulgi ikkita mustaqil fikr matritsasi yoki assosiatsiya kontekstining to'qnashuvi natijasida yuzaga keladi. Aynan ziddiyat nazariyalari kognitiv yondashuv uchun asos bo'lib xizmat qildi va mazkur tadqiqotning tayanch metodologiyasini tashkil etadi.

Konstruktsiyalar grammatikasi nazariyasi Ch.Fillmor va A.Goldberg tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, tilning asosiy birligini konstruktsiya – ya'ni sintaktik tuzilma va uning semantik mazmunining yaxlit birligi sifatida belgilaydi. Bu yondashuv latifaning komik effektini yaratuvchi mexanizmlarni yangicha tushunishga imkon beradi: latifaning kalit elementlari alohida ko'p ma'noli leksik birliklar sifatida emas, balki yaxlit leksik-grammatik birliklar – konstruktsiyalar sifatida ko'rib chiqiladi.

M.A. Uxanovanning tadqiqotiga ko'ra, latifa mazmunini tahlil qilish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: 1. konstruktsiyalarni ajratib olish jarayoni; 2. konstruktsiyalar va freymlarni inventarizatsiya qilish hamda farqlash; 3. konstruktsiyalar va freymlarning o'zaro ta'sir va ustma-ust tushish jarayonini tavsiflash; 4. Ma'no konstruktsiya qilish mexanizmini tavsiflash. Ushbu to'rt bosqichli metodologiya o'zbek latifalariga ham tatbiq etilishi mumkin.

Konstruktsion tahlilning ilmiy asoslanishi uchun A.Stefanowich va S.Grisning koelektsem tahlili metodi qo'llaniladi. Bu ko'p bosqichli algoritm quyidagilarni o'z ichiga oladi: korpus tanlash, leksik-grammatik patterni tuzish, dastlabki tahlil, attraksiya chegarasi va konstruktsiya slotlarining attraksiya darajasini aniqlash. Bu esa mazkur leksik-grammatik birlikning tildagi barqarorligini aniqlash va koektsiya belgilarini aniqlash imkonini beradi.

M.A. Uxanova ingliz tilidagi 3 000 dan ortiq anekdotni tahlil qilib, ularni kognitiv disonansning yuzaga kelish mexanizmi bo'yicha uch turga ajratadi. Ushbu tasnif o'zbek latifalarini turkumlashda ham metodologik asos bo'lishi mumkin:

1. Leksik-sintaktik darajada kognitiv disonans. Bu turdagi latifalar idiomatik (barqaror) konstruktsiya va ochiq slotli konstruktsiyalarning qo'shilishiga asoslanadi.

2. Fonetik darajada kognitiv disonans. Bu turdagi latifalar tovush o'xshashligi asosidagi kalambur orqali quriladi. Bu darajada konstruktsiyalarni inventarizatsiya qilish qiyinroq, chunki ularning qo'shilishi natijasida cheksiz ko'p kalambur yuzaga kelishi mumkin. Ingliz tilidagi zamonaviy anekdotlarda "savol-javob" sxemasi bo'yicha qurilgan dad jokes keng tarqalgan; ushbu darajada pretsedent ismlar ham tez-tez qo'llaniladi.

3. Verbal-vizual latifalar (internet-memlar) va ko'pmodal tahlil. Zamonaviy texnologiyalar nafaqat axborotni tarqatish va qabul qilish usulini, balki uning tuzilmasini ham o'zgartirmoqda. Internet-lingvistika jadal rivojlanmoqda, chunki internet-makonning tili

ommalashgan tadqiqot obyektiga aylandi. Mikromatnning eng qadimiy janrlaridan biri – latifa ham bundan istisno emas: u nafaqat o‘z ta’rifini, balki tuzilishi va funksiyalarini ham o‘zgartirdi.


M.A Uxanovaning tadqiqotiga ko‘ra, an’anaviy matnli latifaning verbal-Internet-memda faollashtirilgan freymmlar soni til konstruktsiyalariga nisbatan ancha ko‘p – bu semiotik imkoniyatlarning kengligi bilan izohlanadi. Lingvokognitiv eksperiment ko‘pkodalangan latifalarda kulgi hosil qilishning murakkab tuzilmasini tasdiqladi.

O‘zbek latifalarini konstruktsiyalar grammatikasi va kognitiv-diskursiv metodologiya nuqtai nazaridan o‘rganishning nazariy asoslari belgilandi. M.A. Uxanova tomonidan ingliz tilidagi anekdotlar materialida ishlab chiqilgan tahlil metodologiyasi – freymli-konstruktsion tahlil, koelektsem tahlili va KD darajalariga asoslangan tasnif – o‘zbek latifalariga ham tatbiq etilishi mumkinligi asoslandi.

Kognitiv dissonansning uch darajasi (leksik-sintaktik, fonetik va ekstralingvistik) asosida latifalarni tasniflash o‘zbek tilshunosligida ham qo‘llanilishi mumkin. Bu tasnif o‘zbek latifalarining an’anaviy tadqiqotlarini yangi kognitiv va konstruktsion mezonlar bilan boyitish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Уханова М.А. Семантика юмора с позиций грамматики конструкций (на материале анекдотов на английском языке): дис. ... канд. филол. наук. – Москва: МГЛУ, 2024. – 234 с.
2. Fillmore Ch., Atkins B.T. Toward a Frame-Based Lexicon // Frames, Fields and Contrasts. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum, 1992. – P. 75-102.
3. Goldberg A. Constructions: A Construction Grammar approach to argument structure. – Chicago: University of Chicago Press, 1995. – 265 p.
4. Raskin V. Semantic Mechanisms of Humor. – Dordrecht: D. Reidel Publishing Company, 1984. – 284 p.
5. Attardo S. Linguistic Theories of Humor. – N.Y.: Mouton de Gruyter, 1994. – 426 p.
6. Attardo S., Raskin V. Script Theory revis(it)ed: Joke Similarity and Joke Representation Model // Humor: International Journal of Humor Research. – 1991. – Vol. 4, № 3-4. – P. 293-348.
7. Dynel M. Humorous Garden-Paths: A Pragmatic-Cognitive Study. – Newcastle: Cambridge Scholars Publishing, 2009. – 315 p.
8. Фестингер Л. Теория когнитивного диссонанса. – СПб.: Ювента, 1999. – 319 с.
9. Koestler A. The Act of Creation. — London: Hutchinson, 1964. – 751 p.
10. Hoffmann Th. Construction Grammar. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022. – 315 p.



11. Stefanowitsch A., Gries S.Th. Collostructions: investigating the interaction of words and constructions // *International Journal of Corpus Linguistics*. – 2003. – № 8(2). – P. 209-243.

12. Shifman L. Memes in a digital world // *Journal of Computer-Mediated Communication*. – 2013. № 18. –P. 362–377.

13. Канашина С.В. Интернет-мем как новый вид полимодального дискурса: дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2016. – 265 с.

